AHMAD YASSAVIY IJODIDA MA'RIFAT TALQINI

Umurova Nigina Raximovna
tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti,
niginaumurova0@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy ijodida ma'rifat tushunchasining badiiy-falsafiy mohiyati tadqiq etilgan. Mutafakkirning "Devoni hikmat" asarida insonning ruhiy kamoloti, axloqiy poklanishi, nafsni tiyish va Haqni anglash masalalari tahlil qilingan. Yassaviy ta'limotida shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat bosqichlari insonning ma'naviy yuksalish yo'li sifatida talqin etilishi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Yassaviy, "Devoni hikmat", tasavvuf, ma'rifat, shariat, tariqat, haqiqat, komil inson, ma'naviy kamolot.*

Аннотация. *В данной статье исследуется художественно-философское содержание понятия просвещения в творчестве Ахмада Яссави. Анализируются вопросы духовного совершенствования человека, нравственного очищения, преодоления страстей и познания Истины в произведении «Дивани Хикмет». Раскрывается значение понятий шариат, тарикат, хакикат и маърифат как этапов духовного развития личности в учении Яссави.*

Ключевые слова: *Ахмад Яссави, «Дивани Хикмет», суфизм, маърифат, шариат, тарикат, хакикат, совершенный человек, духовное совершенство.*

Abstract. *This article examines the artistic and philosophical interpretation of the concept of enlightenment (ma'rifat) in the works of Ahmad Yasawi. The study analyzes the issues of spiritual perfection, moral purification, overcoming worldly desires, and understanding the Truth reflected in the work "Divani Hikmet". The concepts of sharia, tariqa, haqiqa, and ma'rifat are revealed as important stages of human spiritual development in Yasawi's teachings.*

Keywords: *Ahmad Yasawi, "Divani Hikmet", Sufism, ma'rifat, sharia, tariqa, haqiqa, perfect human, spiritual perfection.*

Ahmad Yassaviy XI–XII asrlar tasavvuf adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, turkiy xalqlar ma'naviy tafakkuri rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. U o'z hikmatlari orqali islomiy qadriyatlar, inson axloqi va ruhiy kamolot masalalarini yoritgan. Ahmad Yassaviy 1041-yilda Sayram hududida tavallud topgan. U dastlab Arslonbob tarbiyasida voyaga yetgan, keyinchalik Buxoroda Yusuf Hamadoniy ta'limotidan bahramand bo'lgan. Mutafakkir o'z qarashlarini xalq orasida keng yoyishda she'riy hikmatlardan foydalangan. Yassaviy hikmatlarining asosiy

mazmunini insonning ma’naviy poklanishi, nafsni jilovlash va Haqqa yaqinlashish g‘oyalari tashkil etadi. Uning ta’limotida qanoat, saxovat, muruvvat, rostgo‘ylik va diyonat kabi fazilatlar komil insonning asosiy belgilaridan sifatida ko‘rsatiladi. Tasavvufda ma’rifat insonning ruhiy kamolot sari intilishidagi muhim bosqichlardan biridir. Ahmad Yassaviy ijodida ma’rifat oddiy bilim emas, balki insonning ichki dunyosini poklash va ilohiy haqiqatni anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Yassaviy hikmatlaridan birida:
“Shariatdin tariqatga qadam qo‘ygon,
Dunyo ishin tark aylabon Haqni suygan.
Haqiqatning asroridin ma’no olg‘on,
Ma’rifatni maydonida uryon bo‘lur.” [2;58]

Ushbu hikmatda shariat, tariqat, haqiqat va ma’rifat tushunchalari o‘zaro bog‘liq holda ifodalangan. Shariat to‘g‘ri yo‘l va diniy qoidalar majmui bo‘lsa, tariqat insonning ruhiy tarbiya yo‘lidir. Bu bosqichlarni bosib o‘tgan inson ma’rifat darajasiga erishadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ma’rifat va ruhiy kamolot talqini Xoja Ahmad Yassaviy ijodida insonning ma’naviy kamolotga erishishi, nafs va dunyo havaslaridan xalos bo‘lishi, Haqqa yaqinlashish yo‘llari muhim mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning quyidagi hikmatida ham insonning ichki poklanishi va ma’rifat sari intilishi tasvirlangan:

“Nishonasi uldur, ani rangi sorig‘,
Ondog‘ kishi bu dunyodin bo‘lur forig‘.
Mosivodin yig‘ib, o‘zni ko‘ngli yorig‘,
Ma’rifatlar anga raxtin sotqum kelur.” [2;64]

Mazkur hikmatda tasavvufiy qarashlar asosida komil inson obrazi yoritilgan. Undagi “sorig‘” (sariq), “forig‘” va “yorig‘” kabi so‘zlar nafaqat qofiyadoshlikni ta’minlagan, balki ma’naviy holat ifodasiga ham xizmat qilgan. Tasavvuf an’analarida ranglar ham ramziy ma’noga ega bo‘lib, “sariq rang” ko‘pincha ruhiy izlanish, dunyoviy manfaatlardan yuz o‘girish va ichki kechinmalar belgisi sifatida talqin qilinadi. Hikmat mazmuniga ko‘ra, insonning haqiqiy ma’rifat sari yo‘li uning “mosivo”dan, ya’ni Allohdan boshqa narsalarga ortiqcha bog‘lanishdan voz kechishi bilan boshlanadi. “Mosivodin yig‘ib, o‘zni ko‘ngli yorig‘” misrasi inson qalbini dunyo tashvishlaridan poklab, ruhiy erkinlikka erishishini anglatadi. Bunday holatga yetgan inson ma’naviy uyg‘oqlik va komillik bosqichiga ko‘tariladi. Ahmad Yassaviy talqinida ma’rifat oddiy bilim tushunchasidan kengroq mazmun kasb etadi. U insonning borliq, jamiyat va o‘z mohiyatini anglashiga, axloqiy fazilatlarni egallashiga xizmat qiluvchi ruhiy darajadir. Ma’rifatga erishgan inson jaholatdan uzoqlashadi, ezgulik, odob va go‘zal xulq tamoyillariga amal qiladi. Shu jihatdan Yassaviy

hikmatlari insonni ilm, tafakkur va ma'naviy poklik sari chorlovchi didaktik manba sifatida ahamiyatlidir. Ma'rifat tushunchasi mumtoz adabiyot vakillari ijodida ham keng yoritilgan. Jumladan, Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarida ishq bosqichidan keyingi ruhiy daraja sifatida ma'rifat vodiysini tilga oladi. Shoirning ta'kidlashicha, ma'rifat yo'li murakkab va keng qamrovli bo'lib, unda insonning taraqqiyoti ham, tanazzuli ham namoyon bo'ladi. Bu esa ma'rifat insonning nafaqat bilim, balki ruhiy yetuklik sari harakatini ifodalashini ko'rsatadi.

Yassaviy mazkur hikmati orqali insonning haqiqiy saodatga erishishi tashqi boyliklarda emas, balki qalb pokligi, ilm va ma'rifat orqali yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Shoir nazarida ma'rifat insonni komillikka yetaklovchi, uni jaholat va ma'naviy tanazzuldan himoya qiluvchi yuksak qadriyatdir.

Ahmad Yassaviy ijodida ma'rifat insonning ma'naviy yetuklikka erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning hikmatlari insonni ezgulikka, axloqiy poklikka va ruhiy kamolotga chorlaydi. Shu jihatdan Yassaviy merosi bugungi kunda ham ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid din. Toshkent: "Matbaachi". 2025.
2 Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. Тошкент: "Мовароуннаҳр". 2004.
3. Ахмад Яссавий. Хикматлар.-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. - Тошкент : "Фан", 1984.
5.Вохидов Р., Махмудов М. Иймон-қалб гавхари. Тошкент:"Маънавият ". 1998.
6. Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad. www.ziyouz.comkutubxonasi
7. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1994.
8. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавхид асрори.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат хамда " Ўзбекистон " нашриётлари, 1999.
9. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Т.: Маънавият, 1999
10. Маҳмуд Асъад Жўшон. Зикруллоҳнинг фазилатлари. Тошкент: "Сано-стандарт". 2019.
11. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи.
12. Raximovna, N. U. (2024). AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TASAVVUFIY TUSHUNCHALAR TALQINI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (p. 64).
13. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: АСН, 1991.
14. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998.
15. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоклари. – Бухоро, 2000.